



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA ONA TILI FANINI O'QITISHDA O'QITUVCHI VA TALABA O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK JARAYONLAR

Mirzaaxmatov Maxmud Raxmatulla o'g'li,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi.

Samarqand, O'zbekiston

mirzaahmatovmahmud@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasida yuzaga keladigan psixologik jarayonlar tahlil qilinadi. Muloqot, motivatsiya, idrok, emotsional muhit va o'zaro ta'sir kabi omillar asosida samarali ta'limni tashkil etish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *psixologik jarayonlar, pedagogik muloqot, motivatsiya, idrok, emotsiya, kommunikativ kompetensiya*

Kirish

Oliy ta'lim tizimida ona tili fanini o'qitish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon o'qituvchi va talaba o'rtasidagi murakkab psixologik munosabatlarga asoslanadi. Aynan shu munosabatlarning to'g'ri tashkil etilishi ta'lim samaradorligini belgilaydi.

Bu sohaga dastlabki fikrlarni Amerikalik mashhur lingvist D.Hayms tomonidan ilgari surilgan "kommunikativ kompetensiya" nazariyasi zamonaviy tilshunoslikda nutqiy faoliyatni o'rganishda muhim burilish yasadi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, til bilimining o'zi yetarli emas; muhim jihat shundaki, shaxs til birliklarini qanday holatda, qanday kontekstda, kimga nisbatan va qanday tarzda qo'llashni ham bilishi kerak. Ya'ni, bu nazariya til egallovchining faqat grammatik bilimlarini emas, balki uning ijtimoiy-kommunikativ malakasini ham o'z ichiga oladi. D.Hayms til egallovchining quyidagi savollarga javob bera olishini



kommunikativ kompetensiyaning asosiy belgisi deb hisoblaydi: “Qachon gapirish mumkin?”, “Kim bilan, qanday mavzuda va qanday uslubda gaplashish lozim?”, “Qaysi nutq uslubi yoki til shakli ma’qul?” Bu savollarga javob berish esa bevosita nutqiy vaziyatni chuqur anglashga bog’liq. Nutqiy vaziyat esa, o‘z navbatida, gapiruvchining va tinglovchining ijtimoiy maqomi, ularning o‘zaro munosabati, muloqotning joyi, vaqti, maqsadi va madaniy fonini o‘z ichiga oladi. Demak, D.Hayms nazariyasida nutqiy vaziyat tushunchasi kommunikativ kompetensiyaning ajralmas elementi sifatida talqin qilinadi. U til o‘rgatish va tilshunoslik tadqiqotlarida kontekstni inobatga olgan yondashuvni taklif qiladi. Bu yondashuv orqali tilni faqat grammatik jihatdan o‘rganish emas, balki uni real nutqiy sharoitlarda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi psixologik jarayonlar mohiyati ta’lim jarayonida quyidagi asosiy psixologik jarayonlar kuzatiladi: 1. Idrok va tushunish jarayoni talaba o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni qabul qiladi, qayta ishlaydi va anglaydi. Bu jarayon: tushunarli izoh misollar vizual vositalar orqali samarali kechadi. Misol tariqasida dars jarayonlarini oladigan bo‘lsak, talaba ikkita sezgi a‘zolari orqali darsdagi jarayonni idrok qiladi va yangi mavzuni hamda bilimni egallaydi, mazkur ikkita asosiy deb olgan sezgilar: birinchisi ko‘rish sezgisi bo‘lsa, ikkinchisi esa eshitish sezgisi hisoblanadi. Maruza so‘zlayotgan o‘qituvchini talaba ko‘rish sezgisi orqali ko‘rib turadi. Eshitish sezgisi orqali eshitib turadi va sezgi retseptorlari orqali idrok qilish jarayoni bo‘lib o‘tadi. Sezgi a‘zolarining markazlari bosh miyada ya’ni oliy nerv faoliyatining yuqori qismida joylashganligi sezgi a‘zolari orqali kelayotgan axborotlarni tahlil qilib idrok qilish orqali ongda xulosa chiqariladi. 2. Muloqot jarayoni Pedagogik muloqot ta’limning markaziy elementi hisoblanadi. Lev Vygotsky ta’kidlaganidek, bilimlar ijtimoiy muloqot orqali shakllanadi. Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, o‘zaro hamkorlik o‘qituvchi va talabalarning ijtimoiy-psixologik birligini ko‘zda tutadi. Dars jarayonida ko‘p holatlarda bunga e’tibor berilmaydi. O‘quv faoliyatining ijtimoiy-psixologik tomoni



ta'limni optimallashtirishning amaliy zaxirasi sanaladi. Ba'zan ta'limning yangi metodlarini emas, balki mavjud bo'lgan metodikadan ishonchli ijtimoiy-psixologik ta'minotini izlash kerak bo'ladi. Darslarni o'zlashtira olmaydigan talabalar xulqidagi chekinishlarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning salbiy xislatlari, tengdoshlari bilan munosabatda passivligi, xulqining o'zgaruvchanligi nafaqat o'z faoliyatidan, balki talabalar jamoasidagi holatidan hamda u bilan do'stona munosabat yetishmaydigan muloqotdan qoniqmasligi oqibatida paydo bo'ladi. Bu holatlarning barchasi talabaning kayfiyatini keskin salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, muloqot jarayonida bog'lanishlar turli jihatlar bilan farqlanadi. Hozirgi yoshlarda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot etikasini shakllantirib borish kelgusida ularning etuk mutaxassislar bo'lib etishishida muhim ahamiyatga egadir. Muloqot quyidagi shakllarda amalga oshadi: savol-javob va bahs-munozarada interaktiv topshiriqlardan foydalanilsa ijobiy ta'sir beradi. 3. Motivatsiya jarayoni talabaning o'rganishga bo'lgan ichki qiziqishi muhim omildir. Talabalarning kasbiy o'sishi motivatsiyasini ularning doimiy motivlari va intilishlari to'plami sifatida aniqlashga imkon berdi, bu esa shaxsiy ehtiyojning o'sishining dinamik, uzluksiz va gumanistik yo'naltirilgan jarayonining mazmuni va yo'nalishini belgilab beradi. Ichki potensialni amalga oshirish qobiliyati va shaxsiy kasbiy va shaxsiy strategiyani va hayot davomida ta'lim yo'nalishini ongli ravishda tanlash, buning natijasida bo'lajak mutaxassisning kasbiy malakasini shakllantirishning yuqori darajasiga erishiladi. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan (psixologik treninglar, o'yin texnologiyalari, pedagogik muammoli vaziyatlar, guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash va boshqalar) oqilona foydalanish samarali bo'ldi, bu esa, o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasini shakllantirishni sezilarli darajada yaxshiladi. Universitetda o'qiyotganda talaba, birinchi navbatda, yangi didaktik vaziyatga moslashish bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolarga duch keladi, bu maktab ta'limidan tubdan farq qiladigan o'quv



jarayonini tashkil etish shakllari va usullaridir. Ushbu yondashuv va u bilan bog‘liq qiyinchiliklar o‘ziga xos didaktik to‘siqni yaratadi, uni engib o‘tish kerak. Bundan kelib chiqadiki, ijobiy motivlar va asosli maqsadlarni shakllantirish bo‘lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki motivlar va maqsadlar faoliyatning muhim belgilovchilari hisoblanadi. O‘qitish jarayonida shakllangan talaba motivlarining tuzilishi bo‘lajak mutaxassis shaxsining tayanchiga aylanadi. Shuning uchun ijobiy ta‘lim motivlarini rivojlantirish o‘quvchi shaxsini tarbiyalashning ajralmas qismidir. Abraham Maslow nazariyasiga ko‘ra, ehtiyojlar qondirilgandagina motivatsiya yuzaga keladi. Motivatsiyani oshirish yo‘llari: rag‘batlantirish, ijobiy baholash, real hayot bilan bog‘lash. 4. Emotsional jarayonlar darsdagi emotsional muhit talabaning faolligiga bevosita ta‘sir qiladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya‘ni kayfiyatimizni ko‘tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba‘zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko‘rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo‘ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi Ijobiy muhitda faollik oshadi. Salbiy muhitda passivlik kuchayadi. 5. Tafakkur va refleksiya: talaba o‘z bilimini tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va baholaydi. Aristotel refleksiyani “tafakkurga yo‘naltirilgan tafakkur” deb ta‘riflagan. Inson ongining bu hodisasi ko‘plab fanlar tomonidan turli tomonlardan ko‘rib chiqiladi. Refleksiya lotin tilidan olingan bo‘lib (reflexio – ortga nazar) - bu inson ongi harakatlarining turlaridan biri, ya‘ni o‘z bilimiga qaratilgan ongli harakati. Jean Piaget tafakkur rivojlanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida ko‘rsatadi. Ona tili darslarida psixologik o‘zaro ta‘sir ona tili fanida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir quyidagilar orqali amalga oshadi: nutqiy faoliyat (gapirish, yozish, tinglash) fikr almashish ijodiy ishlanmalar. Bu jarayonlarda o‘qituvchi: yo‘naltiruvchi, motivator, hamkor rolini bajaradi.



Samarali psixologik muhit yaratish shartlari quyidagi omillar muhim hisoblanadi: O‘zaro hurmat va ishonch, Erkin fikr bildirish imkoniyati, Individual yondashuv, Stresssiz ta’lim muhiti, Talabalarni qo‘llab-quvvatlash. O‘qituvchining psixologik roli; zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki psixolog ham bo‘lishi kerak: talabani tushunish, konfliktlarni boshqarish, motivatsiya yaratish, samarali muloqot o‘rnatish Psixologik jarayonlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri To‘g‘ri tashkil etilgan psixologik muhit natijasida: talabaning nutqiy faolligi oshadi mustaqil fikrlash rivojlanadi, darsga qiziqish ortadi, bilimlar mustahkam o‘zlashtiriladi.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi psixologik jarayonlar muhim ahamiyatga ega. Ularni to‘g‘ri boshqarish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois pedagoglar psixologik bilimlarni chuqur egallashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Abraham Maslov – Motivation and Personality. Harper & Brothers. 1954
- 2.Jean Piaget – The Psychology of Intelligence. Paris in. 1947
- 3.Lev Vygotsky – Thinking and Speech. M.; Л.: Соцэкгиз. 1934